

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XAYRULLAYEV G‘IYOSIDDIN ULUG‘BEK O‘G‘LI

**BA‘ZI 3d-METALLARNING 3-AMINO-1,2,4-TRIAZOL HOSILALARI
ASOSIDAGI KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI, TUZILISHI VA
XOSSALARI**

02.00.01 – Noorganik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on chemical sciences**

Xayrullayev G‘iyosiddin Ulug‘bek o‘g‘li

Ва’зи 3d-metallarning 3-amino-1,2,4-triazol hosilalari asosidagi kompleks birikmalari sintezi, tuzilishi va xossalari.....3

Хайруллаев Гиёсиддин Улугбек угли

Синтез, строение и свойства комплексных соединений некоторых 3d-металлов на основе производных 3-амино-1,2,4-триазола.....21

Khayrullaev Giyosiddin

Synthesis, structure, and properties of complex compounds of some 3d-metals based on 3-amino-1,2,4-triazole derivatives.....41

E‘lon qilingan nashrlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.K.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XAYRULLAYEV G‘IYOSIDDIN ULUG‘BEK O‘G‘LI

**BA‘ZI 3d-METALLARNING 3-AMINO-1,2,4-TRIAZOL HOSILALARI
ASOSIDAGI KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI, TUZILISHI VA
XOSSALARI**

02.00.01 – Noorganik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K551 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-saytida (ik-kimyo.nuu.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna
Kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rafikov Adham Salimovich
Kimyo fanlari doktori, professor

Abdullayeva Zubayda Shavkatovna
PhD, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 22-avgust soat 14⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88, (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 124 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, (+99871)227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12-avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil 11-avgustdagi 16 raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.A. Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
k.f.d., professor

N.X. Qutlimurotova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor

Sh.Sh. Daminova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda aholi sonining jadal ortishi natijasida insoniyat oldida ko‘plab yangi muammolar yuzaga kelmoqda. Insonlarni oziq-ovqat maxsulotlari bilan uzluksiz taminlash, yangi yuqulmi kasalliklarga qarshi kurashish va ularga samarali davo topish shular jumlasidandir. Bu muammolarni hal etishda o‘simlik zararkunandalariga qarshi ekologik xavfsiz fungitsid va gerbitsidlar, o‘simliklarning o‘shirishini rag‘batlantiruvchi stimulyatorlar, shuningdek, virus va bakteriyalarga qarshi yuqori biofaollikka ega tibbiy preparatlarni yaratish juda muhim hisoblanadi. Ayrim d-metallarning 1,2,4-triazol hosilalari asosida olingan kompleks birikmalaridan foydalanish orqali o‘simliklarning o‘shirishini stimullovchi moddalarning biofaolligi, xavfsizligi va samaradorligini oshirish, shuningdek, samarali antibakterial preparatlarni yaratish imkoniyati mavjud. Bu kabi komplekslar amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yuqori samaradorlikka ega, kompleks ta’sir ko‘rsatadigan biologik faol moddalarni sintez qilish sharoitlarini optimallashtirish yo‘nalishida keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, geterotsiklik birikmalarning metall komplekslarini sintez qilishda turli o‘rinbosar guruhlarning ta’sirini o‘rganish orqali kam zaharli, ekologik xavfsiz va tabiiy moddalarga funksional alternativ bo‘la oladigan birikmalarni yaratish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, oraliq d-metall ionlari ishtirokida geterotsiklik ligandlar asosida kompleks birikmalar sintez usullarini ishlab chiqish, ularning tarkibi va tuzilishini aniqlash, ligandlarning metall ionlari bilan koordinatsiyalanish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, komplekslardagi kimyoviy bog‘larning tabiatini tushuntirish hamda fizik, kimyoviy va biologik xossalarni baholash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish katta ilmiy ahamiyatga ega.

Respublikamizda kimyo sanoati sohasini rivojlantirish maqsadida zamonaviy talablarga javob bera oladigan import o‘rnini bosuvchi kimyoviy moddalarni ishlab chiqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan import o‘rnini bosuvchi kimyoviy preparatlar yaratish, kimyo sanoatining eksportdagi ulushini oshirish juda muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida Respublika kimyo sanoatining eksport qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3983-sonli, 2019 yil 3 apreldagi “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4265-sonli, 2021 yil 13 fevraldagi “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4992-sonli, 2020 yil 29 noyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6097-sonli Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo miqyosida organik ligandlar va oraliq metall tuzlari ishtirokida metall komplekslarning sintez usullarini ishlab chiqish, ularning tarkibi, kimyoviy va elektron tuzilishi, kimyoviy xossalari, termik barqarorligi, turli xil erituvchilardagi holati, biologik faolliklari va turli xil sohalarda qo'llanilishi bo'yicha Sh. Wu, H. Zhao, M.Z. Milosev, A.A. Dippold, M.O. Matos, R. Gautier, G.A. Van Albada va boshqa taniqli olimlar keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

MDH mamlakatlarida koordinatsion birikmalar va ularni amaliy qo'llash N.T.Kuznetsova, Ye.V.Antipova (Rossiya), A.P.Gulya (Moldova), V.I.Pexnko (Ukraina), G.V.Sinsadze (Gruziya) rahbarligidagi olimlarning ilmiy guruhlari va maktablari tomonidan tashkil etilgan. Olimlar tomonidan koordinatsion birikmalarining tuzilish nazariyasi doirasida kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi, xossalari va biologik faolligini aniqlash bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekistonda koordinatsion birikmalar kimyosi sohasida akademiklar N.A.Parpiyev, B.T.Ibragimov, professorlar X.T.Sharipov, T.A.Azizov, B.V.Umarov, A.A.Shabilalov, Sh.A.Kadirova, Z.Ch.Kadirova va Sh.Sh.Daminovalar ilmiy maktablari olimlari faoliyat olib bormoqda.

Adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, geteroatomli ligandlar va oraliq metall ionlari ishtirokidagi kompleks birikmalar haqida keng ko'lamli ma'lumotlar to'plangan bo'lsa ham 1,2,4-triazol hosilalari va 3d-metall ionlarining kompleks birikmalari nisbatan kam o'rganilgan. Shu bois, 3-amino-1,2,4-triazol hosilalarining koordinatsion birikmalarini sintez qilish, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlash alohida ilmiy qiziqish kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining "Aromatik va geterotsiklik birikmalar asosida yangi biologik faol kompleks birikmalar sintezi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi rejasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi: Mn(II), Fe(II), Co(II) va Ni(II) tuzlari bilan 3-amino-1,2,4-triazol hosilalarining metallokompleks birikmalarini sintez qilish hamda ularning tuzilishi va xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

3-amino-1,2,4-triazolning yangi hosilalarini sintez qilish;

Mn(II), Fe(II), Co(II) va Ni(II) tuzlari bilan 3-amino-1,2,4-triazol hosilalarining metallokomplekslarini sintez qilish;

metallokompleks birikmalarining tuzilishi va xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilish;

yangi ligandlar va komplekslarning elektron tuzilishi, energetik va geometrik parametrlari hamda reaksiya qobiliyatini zamonaviy kvant-kimyoviy usullar yordamida hisoblash;

yangi olingan kompleks birikmalarning biologik xossalarini baholash.

Tadqiqotning obyekti: 3-amino-1,2,4-triazol hosilalari va ularning Mn(II), Fe(II), Co(II) va Ni(II) xloridli, bromidli, sulfatli, nitratli, perxloratli tuzlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti: 3-amino-1,2,4-triazol hosilalari va ularning 3d-metall tuzlari bilan hosil qilgan komplekslarining tarkibi, tuzilishi va xossalarini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari sifatida kvant-kimyoviy hisoblashlar, element, energiya-dispersiya, rentgenfluoresent, differensial-termik (DTA) analizlar, rentgenofazaviy, rentgen strukturaviy (RSA) tahlil, Mass spektrometriya, IQ-spektroskopiyasi va biologik faolliklarni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Mn(II), Fe(II), Co(II) va Ni(II) larni xloridli, bromidli, sulfatli, nitratli, perxloratli tuzlarining 3-amino-1,2,4-triazol hosilalari bilan 31 ta yangi kompleks birikmalari sintez qilingan;

kvant-kimyoviy hisoblashlar natijasida ligandlarning elektron tuzilishlari va 3d-metall ionlariga triazol halqasidagi endosiklik azot atomlaridan koordinatsiyalanish ehtimolligi aniqlangan;

zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida atsidoligandlarning (Cl^- , Br^- , SO_4^{2-} , NO_3^- , ClO_4^-) tabiati va hajmiga ko'ra molekulararo o'zaro ta'sirga kirishishi hamda atsidoligandlar tabiatiga qarab tashqi sferada (SO_4^{2-} , NO_3^- , ClO_4^-) va ichki sferada (Cl^- , Br^-) joylashishi aniqlangan;

ilk bor 3-amino-1,2,4-triazol asosidagi 3-metil-5-amino-(1*H*-1,2,4-triazol) (L^1) va 3,3'-disulfanidilbis(5-amino-1*H*-1,2,4-triazol) (L^2) larning kristallari olingan va rentgen strukturaviy tahlil yordamida tuzilishi isbotlangan;

ilk bor rentgen strukturaviy tahlil yordamida $[\text{FeL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{CoL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{CoL}^2(\text{H}_2\text{O})_4](\text{ClO}_4)_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{CoL}^2\text{Br}_2] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{Co}_3\text{L}^1_6(\text{H}_2\text{O})_6](\text{SO}_4)_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$, $[\text{Co}_3\text{L}^1_6(\text{H}_2\text{O})_6](\text{NO}_3)_6 \cdot 18\text{H}_2\text{O}$ kompleks birikmalarining tetraedr, oktaedr va uchyadroli oktaedr tuzilishga ega bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mn(II), Fe(II), Co(II) va Ni(II) kabi 3d-metallarni 3-amino-1,2,4-triazol hosilalari bilan kompleks birikmalarining sintez usullari ishlab chiqilgan;

$\text{C}_4\text{H}_6\text{N}_8\text{S}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$, $\text{C}_3\text{H}_6\text{N}_4\text{S} \cdot \text{H}_2\text{O}$, $[\text{FeL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{CoL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{CoL}^2(\text{H}_2\text{O})_4](\text{ClO}_4)_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{CoL}^2\text{Br}_2] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{Co}_3\text{L}^1_6(\text{H}_2\text{O})_6](\text{SO}_4)_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$, $[\text{Co}_3\text{L}^1_6(\text{H}_2\text{O})_6](\text{NO}_3)_6 \cdot 18\text{H}_2\text{O}$ tarkibli birikmalarning fazoviy tuzilishi isbotlangan va $\text{C}_4\text{H}_6\text{N}_8\text{S}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$, $\text{C}_3\text{H}_6\text{N}_4\text{S} \cdot \text{H}_2\text{O}$, $[\text{FeL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{CoL}^2(\text{H}_2\text{O})_4](\text{ClO}_4)_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ birikmalari Xalqaro Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan;

$[\text{Co}_3\text{L}^1_6(\text{H}_2\text{O})_6](\text{SO}_4)_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$, $[\text{Ni}_3\text{L}^1_6(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_6 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$, $[\text{CoL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tarkibli kompleks birikmalarda bug'doy va bodring

urug'lariga nisbatan yuqori (93,3-99,5%) o'stiruvchilik, yovvoyi o't shuvoqqa nisbatan gerbitsitlik xususiyati aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchligi kvant-kimyoviy hisoblashlar, element, energiya-dispersion, rentgenfluorescent, differensial-termik (DTA) analizlar, rentgenofazaviy, rentgen strukturaviy tahlillar, Mass spektrometriya, IQ-spektroskopiya va biologik faolliklarni aniqlash kabi zamonaviy tadqiqot usullari bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mn(II), Fe(II), Co(II) va Ni(II) xloridli, bromidli, sulfatli, nitratli, perxloratli tuzlarining 3-amino-1,2,4-triazol hosilalari bilan koordinatsiyalanish qonuniyatlarining aniqlanganligi, atsidoligandning tabiati kompleks birikmaning tarkibi va tuzilishiga ta'sir qilganligi hamda komplekslarning tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlashda zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida olingan natijalar koordinatsion birikmalar kimyosini yangi nazariy ma'lumotlar bilan boyitganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati $C_4H_6N_8S_2 \cdot H_2O$, $C_3H_6N_4S \cdot H_2O$, $[FeL^2(H_2O)_4]SO_4 \cdot 2H_2O$, $[CoL^2(H_2O)_4](ClO_4)_2 \cdot 2H_2O$ birikmalarining kristallografik ma'lumotlari Kembridj Xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilganligi hamda $[Ni_3L^1_6(H_2O)_6]Cl_6 \cdot 4H_2O$ tarkibli kompleks birikmaning yuqori samarali gerbitsid ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 3-amino-1,2,4-triazol hosilalarini 3d-metallar bilan yangi metall kompleks birikmalarining sintezi, fizik-kimyoviy va biologik xossalari aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida :

$C_4H_6N_8S_2 \cdot H_2O$, $2C_3H_6N_4S \cdot H_2O$, $[FeL^2(H_2O)_4]SO_4 \cdot 2H_2O$, $[CoL^2(H_2O)_4](ClO_4)_2 \cdot 2H_2O$ tarkibli birikmalarining rentgen strukturaviy tahlil natijalari Xalqaro Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasiga (CCDC raqamlari 2224194, 2344246, 2385440, 2394686) kiritilgan. Natijada, kompleks birikmalarining kristall tuzilishi natijalari, ma'lum tuzilish va xossalarga ega bo'lgan o'xshash birikmalarni olishda foydalanish imkonini bergan;

Co(II) va Ni(II) tuzlarining 3-amino-1,2,4-triazol yangi hosilalari bilan olingan kompleks birikmalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasidagi 2021-2024 yillarda bajarilishi ko'zda tutilgan A-FA-2021-266 raqamli "Shumgiyoh (Cistanche) o'simligining tabiiy zahiralardan foydalanishni yo'lga qo'yish va yetishtirishning zamonaviy agrotexnologiyalarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihada qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020-yil 25-dekabrda 86-06-1185-sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va ilmiy-ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda bayon etilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, ularning ishonchliligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Amaliyotga tatbiq etish istiqbollari ko‘rib chiqilgan, bajarilgan ishlar, chop etilgan maqolalar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“1,2,4-triazol hosilalari hamda ularning oraliq metallar bilan koordinatsion birikmalari sintezi va xossalari”** nomli birinchi bobida 1,2,4-triazol hosilalarining sintezi, fizik-kimyoviy xossalari hamda qo‘llanilish sohalari yoritilgan. Xususan, ushbu birikmalar asosida kompleks birikmalar sintezining usullari, ularning biologik faolligi va amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilingan. 3-amino-1,2,4-triazol hosilalari organik ligand sifatida kompleks hosil qilish xususiyatiga ega ekani, shuningdek, ularning tibbiyot, energetika, qishloq xo‘jaligi va kimyoning boshqa yo‘nalishlarida qo‘llanilish istiqbollari asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning **“3-amino-1,2,4-triazol hosilalarining Mn(II), Fe(II), Co(II), Ni(II) tuzlari bilan kompleks birikmalari sintezi”** nomli ikkinchi bobida tadqiqotda qo‘llanilgan asbob-uskunalar va reaktivlar tavsifi, shuningdek, ligandlar va ularning kompleks birikmalarini sintez qilishga doir yondashuvlar bayon etilgan. Shuningdek, sintez qilingan kompleks birikmalarining fizik-kimyoviy xossalari, ularni tavsiflash usullari hamda ligandlar va komplekslarning biologik faolligini aniqlash metodikalari keltirilgan.

Kompleks birikmalarni sintez qilishda mahsulotni erituvchidan ajratib olishni talab qilmaydigan, 6H₂O:3MeOH:DMF erituvchilar sistemasida olib boriladigan usul tanlandi. Sintez jarayonida 3d-metallarning xlorid, bromid, sulfat, nitrat va perxlorat tuzlari eritmalari doimiy aralashtirish sharoitida 3-metil-5-amino-(1*H*-1,2,4-triazol) eritmasiga 1:2, hamda 3,3'-disulfanidilbis(5-amino-1*H*-1,2,4-triazol) eritmasiga 1:1 molyar nisbatda qo‘shildi. Hosil bo‘lgan eritma qizdirilib, reaksiya yakunlangach, aralashma issiq holatda filtrlab olindi va kristallanish uchun saqlab qo‘yildi. Bir necha kundan so‘ng kristall modda ajratib olinib, reaksiya unumlari hamda fizik xossalari aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Mn(II), Fe(II), Co(II), Ni(II) tuzlarining 3-metil-5-amino-(1*H*-1,2,4-triazol) va 3,3'-disulfanidilbis(5-amino-1*H*-1,2,4-triazol) asosida olingan kompleks birikmalarining fizik-kimyoviy tahlil natijalari”** nomli uchinchi bobida ligandlarning Mn(II), Fe(II), Co(II) va Ni(II)ning xlorid, bromid, sulfat, nitrat va perxlorat tuzlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalari tahlil qilingan. Ushbu birikmalar zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida o‘rganilib, ularning tarkibi va tuzilishi aniqlangan, shuningdek, kvant-kimyoviy hisoblashlar orqali molekulyar xususiyatlari yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning “**Kompleks birikmalarning biologik xossalari**” nomli to‘rtinchi bobida sintez qilingan yangi ligandlar hamda ular asosida olingan 3d-metall kompleks birikmalarining biologik faolligi o‘rganilgan. Tadqiqotda bu birikmalarning biologik xossalari *in silico* va *in vitro* usullar orqali har tomonlama tahlil qilingan. Xususan, *in silico* yondashuvda molekulyar doking va toksikologik prognozlash metodlari yordamida birikmalarning maqsadli biomolekulalarga nisbatan potensial o‘zaro ta’siri, farmakokinetik xossalari va xavfsizlik darajasi baholangan. *In vitro* sharoitda esa sintez qilingan moddalar turli biologik obyektlarga nisbatan testdan o‘tkazilib, ularning antibakterial faollik darajalari aniqlangan.


Tadqiqot natijalari sintez qilingan kompleks birikmalarning ayrimlari yuqori biologik faollik namoyon etishini ko‘rsatdi va ularning farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va tibbiyot sohalarida qo‘llanilish istiqbollari borligi isbotladi. Shuningdek, biologik faollikning ligand va markaziy metall ionining tabiati bilan bog‘liqligi ham tahlil qilingan va bu bog‘liqlik natijalari molekulyar tuzilish bilan muvofiqlashtirilgan holda izohlangan.

Ligand molekularidagi elektron zichlikning taqsimoti, donor atomlarning effektiv zaryadlari hamda ularning reaksiya qobiliyatini o‘rganish maqsadida kvant-kimyoviy hisoblashlar olib borildi. Hisoblashlar uchun zichlik funksionallash nazariyasiga (DFT) asoslangan B3LYP funksionali qo‘llanildi. Ushbu yondashuv yordamida molekularlarning elektron tuzilishi, HOMO va LUMO orbitalarining energiyaviy holati, elektrofil va nukleofil markazlar aniqlanib, ligandlarning reaksiya faolliklari haqida chuqur tahliliy ma’lumotlar olindi. Shuningdek, donor atomlar atrofidagi zaryadlarning qiymatlari aniqlanib, ularning metall ionlar bilan koordinatsiyalanish qobiliyati baholandi.


Ligand molekularining geometrik tuzilishi tahliliga ko‘ra, L^1 va L^2 ligandlarda barcha atomlar deyarli bir tekislikda joylashgan. Zaryad taqsimoti natijalari triazol halqasidagi azot atomlarida (N)-zaryad qiymatlari -0,213 dan -0,430 eV gacha bo‘lishligini ko‘rsatgan. Bu endosiklik azot atomlarining metall ionlari bilan koordinatsiyalanishi mumkin bo‘lgan asosiy donor markazlar ekanligini ko‘rsatadi. Hisoblangan elektrostatik potenciallar asosida, manfiy zaryadlar asosan azot atomlari atrofida, musbat zaryadlar esa vodorod atomlari atrofida to‘plangan aniqlangan. Kompleks hosil bo‘lganda manfiy potenciallar kamayishi va musbat potenciallar ortishi kuzatilgan bo‘lib, bu donor atomlar elektron zichligining kompleks markazi ya’ni metall ioni tomon yo‘nalganligini tasdiqlaydi.

Rentgenostruktural tahlil va kvant-kimyoviy hisoblashlar asosida olingan geometrik parametrlar taqqoslanganda, eksperimental va hisoblangan natijalar o‘zaro yaxshi mos kelishi aniqlangan. Bu esa qo‘llanilgan hisoblash metodikasining ishonchliligini tasdiqlaydi hamda ularni kompleks hosil qilish reaksiyalarida ehtimoliy donor markazlarni oldindan prognozlashda samarali qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

L^1 va L^2 ligandlar asosida kompleks birikmalarning sintez reaksiyalari quyidagi sxemalar bo‘yicha olib borildi.



Sintez qilingan kompleks birikmalarning miqdoriy tarkibi element, rentgenfluoussent tahlil hamda skanerlovchi elektron mikroskop (SEM)ga ulangan energo-dispersiyali rentgen spektroskopiyasi (EDS) yordamida aniqlangan (1-rasmlar, 1-jadval). Rentgenfluoussent tahlil natijalari kompleks birikmalar tarkibida metall (Co) va oltingugurt (S) atomlarining mavjudligini tasdiqladi. Xususan, $[\text{Co}_3\text{L}^1_6(\text{H}_2\text{O})_6](\text{SO}_4)_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ tarkibli kompleksda kobalt va oltingugurt elementlarining miqdoriy nisbati 1:2 molyarlikka teng ekani aniqlangan bo'lib, bu metall ionlari va ligandlar orasida 1:2 nisbatda koordinatsiyalanish sodir bo'lganini isbotlaydi.




1-rasm. $[\text{Co}_3\text{L}^1_6(\text{H}_2\text{O})_6](\text{SO}_4)_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ kompleksining mikrotuzilishi va EDA ma'lumotlari (a), rentgenfluoussent tahlili (b)

L² asosida sintez qilingan kompleks birikmalarning xarakteristikasi

№	Birikma	η %	T _s , C	Topildi, %				Hisoblandi %				
				C%	N%	S%	M%	C%	N%	S%	M%	
1	L ²		182	20,85	48,63	27,86		20,86	48,67	27,85	-	
2	[CoL ² (H ₂ O) ₄]SO ₄ ·2H ₂ O		88	280	9,23	22,86	19,42	12,23	9,74	22,72	19,5	11,94
3	[CoL ² (H ₂ O) ₄](ClO ₄) ₂ ·2H ₂ O		83	278	8,18	18,42	10,94	10,29	8,06	18,80	10,76	9,89
4	[CoL ² (H ₂ O) ₄](NO ₃) ₂ ·H ₂ O		78	279	9,89	27,34	13,23	12,13	9,54	27,84	12,74	11,71
5	[CoL ² Cl ₂]		80	164	13,23	31,09	17,68	16,43	13,34	31,12	17,8	16,37
6	[CoL ² Br ₂]·2H ₂ O		84	167	10,22	23,36	13,48	11,98	9,91	23,1	13,22	12,15
7	[NiL ² (H ₂ O) ₄]SO ₄ ·H ₂ O		80	301	10,34	23,62	20,48	11,89	10,11	23,59	20,24	12,35
8	[NiL ² (H ₂ O) ₄](ClO ₄) ₂ ·H ₂ O		73	300	8,43	20,12	11,36	10,14	8,31	19,39	11,10	10,16
9	[NiL ² (H ₂ O) ₄](NO ₃) ₂ ·H ₂ O		75	298	10,23	22,32	12,23	11,48	9,47	22,12	12,65	11,58
10	[NiL ² Cl ₂]		90	171	13,42	31,28	17,68	16,45	13,35	31,14	17,82	16,32
11	[MnL ² (H ₂ O) ₄]SO ₄ ·H ₂ O		63	221	10,63	23,54	20,23	11,55	10,21	23,78	20,48	11,65
12	[MnL ² (H ₂ O) ₄](ClO ₄) ₂ ·2H ₂ O		79	225	8,23	18,81	10,78	9,56	8,11	18,93	10,83	9,28
13	[MnL ² (H ₂ O) ₄](NO ₃) ₂ ·H ₂ O		82	230	9,54	28,25	12,68	11,12	9,62	28,08	12,84	11
14	[MnL ² Cl ₂]		85	160	13,33	31,57	18,25	15,2	13,49	31,47	18,01	15,43
15	[FeL ² (H ₂ O) ₄]SO ₄ ·2H ₂ O		92	224	10	22,63	20,14	11,5	9,8	22,85	19,63	11,39
16	[FeL ² Cl ₂]		80	164	13,62	31,48	17,78	15,56	13,44	31,37	17,93	15,68

Sintez qilingan ligandlarning infraqizil (IR) spektrlari ularning tuzilmasida mavjud funksional guruhlarni aniqlashda asosiy tahlil usullaridan biri sifatida xizmat qildi. IR spektrlarda yuqori chastotali sohalarda –NH₂ va –CH₃ guruhlariga tegishli valent tebranishlar qayd etildi. NH₂ guruhining deformatsion tebranishlariga mos signal 1637–1633 cm⁻¹ oralig‘ida aniqlangan. Triazol halqasidagi C=N bog‘ining assimetrik valent tebranishi 1591–1586 cm⁻¹ simmetrik valent tebranishi esa 1435–1428 cm⁻¹ da qayd etildi. C–N valent tebranishiga mos signal 1358–1363 cm⁻¹ sohalarda kuzatildi. Shuningdek, past chastotali sohalarda N–N va C–S bog‘lariga tegishli valent tebranishlar mos ravishda 1002–1004 cm⁻¹ va 758–759 cm⁻¹ da kuzatildi. L¹ ligand spektrida –CH₃ guruhiga xos yutilish chiziqlari 2995 cm⁻¹ (ν_{as}CH₃), 2847 cm⁻¹ (ν_sCH₃), 1503 cm⁻¹ (δ_{as}CH₃) va 1380 cm⁻¹ (δ_sCH₃) sohalarda qayd etilgan. L² ligand spektrida esa 490 cm⁻¹ da S–S bog‘iga tegishli valent tebranish signalining mavjudligi aniqlangan (2a- rasm).

Mazkur IQ spektr ma‘lumotlari sintez qilingan ligandlarning tuzilishi va funksional guruhlarga mos kelib, ularning tuzilishini tasdiqlovchi ishonchli dalillar sifatida xizmat qiladi.




2-rasm. L² (a) va uning FeSO₄ kompleksining (b) IQ-spektrlari

Ligandlar va ularning metall xlorid, bromid, sulfat, nitrat hamda perxloratlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning infraqizil spektrlari taqqoslab tahlil qilindi. Komplekslar spektrlari asosida aniqlanishicha, C=N bog‘ining simmetrik valent tebranishlariga mos yutilish chiziqlari ligand spektri bilan solishtirganda 11–26 cm^{-1} ga, C–N valent tebranishlari esa 5–50 cm^{-1} ga past chastotali sohalarga siljigan. Bu hodisa metall ionlari bilan koordinatsiya jarayonida triazol halqasining endosiklik 2- va 4-holatdagi azot atomlari orqali koordinatsion bog‘lar hosil bo‘layotganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, L^2 ning sulfat, nitrat va perxlorat tuzlari bilan olingan komplekslarining IQ spektrlari 3147–3168 cm^{-1} oralig‘ida keng yutilish chiziqlariga ega bo‘lib, ular koordinatsiyalangan suv molekularining valent tebranishlariga mos keladi. Ushbu chiziqlar yuqori chastotali $-\text{NH}_2$ va $-\text{CH}_3$ guruhlariga tegishli yutilish chiziqlarini qisman to‘sib turadi. Kompleks birikmalarning spektrlari 433–453 cm^{-1} oralig‘ida M–N valent tebranishlariga, 602–656 cm^{-1} oralig‘ida esa M–O valent tebranishlariga mos yangi yutilish chiziqlari bilan farqlanadi. Bu signallar ligandlar spektrida kuzatilmaydi va komplekslar tarkibida metall–ligand koordinatsion bog‘larining shakllanganligini tasdiqlaydi (2b-rasm).

Tahlil natijalari, shuningdek, atsido-ligandlarning tabiati komplekslarning tuzilishiga bevosita ta‘sir qilganini ko‘rsatadi. Xlorid va bromid anionlari bilan hosil bo‘lgan komplekslarda anionlar ichki sferada joylashib neytral molekular hosil qilgan bo‘lsa, sulfat, nitrat va perxlorat anionlari bilan olingan komplekslarda anionlar tashqi sferada joylashib, kationli komplekslar hosil qilgan.

Kompleks birikmalarni termik analiz usulida o‘rganish-ularning termik xossalari, barqarorligi va tarkibini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu usul moddalarni harorat ta‘sirida qanday o‘zgarishini aniq bosqichlar bilan kuzatish imkonini beradi.

Kompleks birikmalarning derivatogrammalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 250–650 $^{\circ}\text{C}$ harorat oralig‘ida birikmalar tarkibidagi organik komponentlarning termik parchalanishi yuz beradi. DTA egri chiziqlarida bu jarayonlar kimyoviy bog‘larning uzilishi va yangi bog‘larning hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular mos ravishda endotermik va ekzotermik effektlar shaklida aks etadi.



3-rasm. $[\text{Co}_3\text{L}_6(\text{H}_2\text{O})_6](\text{SO}_4)_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ (a) va $[\text{FeL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ (b) kompleks birikmalarining termogrammasi

$[\text{Co}_3\text{L}_6(\text{H}_2\text{O})_6](\text{SO}_4)_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ kompleks birikmasining termogravimetrik tahlili natijalari birikmaning uch bosqichli parchalanish xarakteriga ega ekanligini

ko'rsatdi (4a-rasm). Birinchi bosqich 179–210 °C oralig'ida kuzatilib, ichki va tashqi sferadagi suv molekulasi bosqichma-bosqich ajralib chiqishi sodir bo'ladi. Bu jarayonda umumiy massa yo'qotilishi 17,281 % ni tashkil etdi. Ikkinchi bosqich 280–575 °C oralig'ida kompleks tarkibidagi olti molekula ligandning termik parchalanishiga to'g'ri kelib, eng katta massa yo'qotilishi (48,969 %) qayd etildi. Uchinchi bosqich 450–660 °C oralig'ida amalga oshib, ekzotermik effektlar bilan kuzatilgan. Bu bosqich SO_4^{2-} guruhining termik parchalanishi (SO_2 va O_2 ajralishi)ga mos keladi. Termik parchalanish jarayoni 768 °C da yakunlanadi, bunda qattiq qoldiq sifatida CoO oksidi hosil bo'ladi. Tahlil natijalari kompleks birikmaning bosqichma-bosqich parchalanish mexanizmini, komponentlarning termik barqarorligi va strukturaviy mosligini tasdiqlaydi (3a-rasm).


$[\text{FeL}^2(\text{H}_2\text{O})_2]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ kompleks birikmasining termogravimetrik tahlili birinchi bosqichida 72–224 °C oralig'ida tashqi va ichki sferadagi suv molekulari ajralib chiqdi. Bu jarayon endotermik xarakterga ega bo'lib, umumiy 21% massa yo'qotilishi bilan kechdi (nazariy hisob – 22%). Ikkinchi bosqich 240–540 °C oralig'ida kuzatildi va kompleks tarkibidagi organik ligandlarning parchalanishi natijasida 44% massaning kamayishi qayd etildi. Uchinchi bosqich 540–710 °C da FeSO_4 ning Fe_2O_3 oksidiga aylanishi bilan yakunlanib, qoldiq massa 17,747% ni tashkil etdi (nazariy hisob – 16,3%) (3b-rasm).

Har ikkala ligand asosidagi komplekslarning termik barqarorligi markaziy metall ionining kimyoviy tabiatiga bog'liq bo'lib, u $\text{Mn}^{2+} < \text{Fe}^{2+} < \text{Co}^{2+} < \text{Ni}^{2+}$ tartibida ortib borishi bilan xarakterlanadi. Termik barqarorlik nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, L^2 ning metall sulfati, nitrati va perxloratlari bilan hosil bo'lgan komplekslari xloridlariga nisbatan yuqoriroq barqarorlikka ega ekani, shuningdek, L^1 asosidagi komplekslar umumiy jihatdan L^2 asosidagi kompleks birikmalariga nisbatan yuqori termik barqarorlikni namoyon qilishi aniqlangan.

Mass-spektrometriya kompleks birikmalarning tuzilishi, molekulyar massasi, barqarorligi va parchalanish mexanizmlarini aniqlashda eng ishonchli usullardan biridir.

$[\text{MnL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ kompleks birikmasining mass-spektr tahlili uning fragmentlanish xususiyati va strukturaviy mosligini aniqlash imkonini berdi (4-rasm). Spekrda 178,5 m/z da kuzatilgan $[\text{MnL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]^{2+}$ signal asosiy molekulyar ion bo'lib, kompleksning formulasi bilan mos kelishini tasdiqlaydi. Shuningdek, 169,5 m/z $[\text{MnL}^2(\text{H}_2\text{O})_3]^{2+}$, 160,5 m/z $[\text{MnL}^2(\text{H}_2\text{O})_2]^{2+}$ va 151,5 m/z $[\text{MnL}^2]^{2+}$ dagi signallar bosqichma-bosqich suv molekularining ajralib chiqishini ko'rsatadi. 231 m/z da $[\text{L}^2\text{H}]^+$ signali ligandning to'liq ajralgan ionini ifodalaydi, 115 m/z da esa disulfid bog'ining uzilishi natijasida hosil bo'lgan $\text{C}_3\text{H}_3\text{N}_4\text{S}^+$ fragmenti qayd etilgan. 56 m/z da kuzatilgan Mn^{2+} signali markaziy metall ionining parchalanishdan so'nggi holatini aks ettiradi.

Mass-spektrda 178,5 m/z da qayd etilgan asosiy ionning mavjudligi kompleksning $[\text{MnL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ formulasiga muvofiq kelishini isbotlaydi. Komplekslarning past intensivlikdagi molekulyar ionlari ularning termik parchalanishga moyilligini ham ko'rsatadi.




4-rasm. $[\text{MnL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ kompleksining elektr maydonida sachratib ionlantirish sharoitida olingan mass-spektri, erituvchi – metanol

Rentgenfazaviy analiz (RFA) kompleks birikmalarning tarkibi, kristall tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlashda asosiy usullardan biri hisoblanadi.

3,3'-disulfanidilbis(5-amino-1*H*-1,2,4-triazol) (L^2) va uning $[\text{FeL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ kompleksining rentgenfazaviy tahlil natijalari ularning yuqori kristallanish darajasiga ega modda ekanligini ko'rsatdi. L^2 ligandi uchun rentgenogrammada aniqlangan asosiy intensiv pik $2\theta = 23.57^\circ$ da qayd etilib, moddaning kristall panjarasiga mos keluvchi xususiy belgi sifatida namoyon bo'ladi. Kichik burchaklardagi piklar ($2\theta=11.83^\circ$ va 17.20°) esa yirik kristall yacheykalar yoki gidratlangan shakllarga ishora qiladi. Kristallarning o'lchami 100-3000 Å diapazonida bo'lib, bu yuqori darajadagi strukturaviy tartiblanganlikni bildiradi (5-rasm).

Kompleks hosil bo'lganidan so'ng kuzatilgan rentgenogrammadagi piklarning siljishi va intensivligidagi farqlar ligand molekulasining koordinatsiyalanish jarayonida tuzilmasida yuz bergan o'zgarishlarni ko'rsatadi. Umuman, RFA natijalari L^2 ning ham, uning $[\text{FeL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ kompleksining ham kristall holatda va yuqori fazoviy tartibga ega ekanligini tasdiqlaydi.



5-rasm. a) L^2 rentgenogrammasi va b) $[\text{FeL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ kompleksining rentgenogrammasi

Ligandlar va komplekslarning molekulyar va kristall tuzilishini chuqurroq taxlil qilish uchun rentgen strukturaviy analiz o'tkazilib, natijalari Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritildi.

$[\text{FeL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $[\text{CoL}^2(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$,
 $[\text{CoL}^2(\text{H}_2\text{O})_4](\text{ClO}_4)_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ hamda $[\text{CoL}^2\text{Br}_2] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ komplekslari monoklinik

singoniyada kristallangan. Dastlabki uch kompleksda markaziy Fe^{2+} yoki Co^{2+} ionlari oktaedrik geometriyada bo‘lib, ichki sferada bidentat ligand va to‘rtta suv molekulasi bilan koordinatsiyalangan. Tashqi sferada SO_4^{2-} yoki ClO_4^- anionlari hamda kristallizatsion suv molekulari joylashgan. $[\text{CoL}^2\text{Br}_2]\cdot 2\text{H}_2\text{O}$ kompleksida esa Co^{2+} ionining koordinatsion soni to‘rtga teng bo‘lib, u tetraedrik geometriyada neytral kompleks hosil qilgan (7-rasm, 2-jadval).

